



IELTS TEST TIZIMINING OMMALASHUV OMILLARI VA UNING BOSHQA TIL TESTLARIDAN FARQLI JIHATLARI

Ismatilloev Parviz Komiljonovich

Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

parvizismatilloev@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada IELTS (International English Language Testing System) test tizimining ommalashuviga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilinadi. Xususan, testning pullik xususiyati, topshiriq turlarining soddaligi, marketing strategiyalarining samaradorligi, mustaqil tayyorgarlik uchun resurslarning kengligi hamda tizimning moslashuvchanligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqotda zamonaviy til testlash nazariyalari va ta'lim paradigmalari asosida tahliliy yondashuv qo'llanilgan. Natijalar IELTS tizimining boshqa til testlaridan ustun jihatlari aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: IELTS, til testlash, kommunikativ kompetensiya, baholash tizimi, marketing strategiya, mustaqil ta'lim, validlik, til kompetensiyasi

Аннотация. В данной статье анализируются основные факторы, способствующие популярности международной системы тестирования английского языка IELTS (International English Language Testing System). Особое внимание уделяется таким аспектам, как платный характер теста, простота структуры заданий, эффективность маркетинговых стратегий, наличие широкого спектра ресурсов для самостоятельной подготовки, а также гибкость системы. Исследование основано на современных теориях языкового тестирования и образовательных подходах. Полученные результаты позволяют выявить преимущества IELTS по сравнению с другими языковыми тестами.

Ключевые слова: IELTS, языковое тестирование, коммуникативная компетенция, система оценки, маркетинговая стратегия, самостоятельное обучение, валидность, языковая компетенция

Abstract. This article examines the key factors contributing to the growing popularity of the International English Language Testing System (IELTS). The study focuses on several aspects, including the cost of the test, the simplicity and standardization of task types, effective marketing strategies, the availability of extensive self-study resources, and the system's flexibility. The research is based on contemporary theories of language testing and educational paradigms, applying an analytical approach. The findings highlight the distinctive advantages of IELTS compared to other international language testing systems.



Keywords: IELTS, language testing, communicative competence, assessment system, marketing strategy, self-directed learning, validity, language proficiency

Ilm-fan dunyosiga kirar ekanmiz, ma'lum bir ilmiy daraja yoki unvon olish maqsadida bo'lgan talabgorning qaysidir test natijasi uning faoliyatiga va hayotiga ta'sir o'tkazmay qolmaganini ko'rish qiyin. IELTS (Xalqaro Ingliz tili test tizimi) imtihoni mazkur kunlarda ko'plab soha vakillari uchun faoliyatlarida tubdan burilish qilishga qodir bo'lgan kam sonli til bilish darajasini aniqlash imtihoniga aylanib ulgurdi. British Council ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, 55000dan yuqori ko'rsatkich bilan O'zbekiston 2024-yilda IELTS imtihonlari topshiruvchilar soni bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi o'rinni qayd etgan (bunga aholining soni nisbatan ko'p bo'lganligi ham ta'sir o'tkazishi mumkin). IELTS imtihonlariga bo'lgan talab fenomenal oshib borayotgan bir paytda, bunga qanday omillar sabab bo'lganligini bilish juda muhimdir.

Birinchidan, IELTS imtihonining pullikligi va nisbatan yuqori narxi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Til testlash nazariyasida baholash tizimining iqtisodiy qiymati uning ijtimoiy kapital sifatidagi rolini belgilaydi. IELTS natijasi ko'plab mamlakatlarda oliy ta'limga kirish, migratsiya va ish bilan ta'minlanish imkoniyatlarini kengaytirgani sababli talabgorlar uni investitsiya sifatida qabul qiladilar [Bourdieu 1986: 243]. Testning ishonchliligi va validligi uni ishlab chiqish va qo'llash xarajatlari bilan bevosita bog'liq [Bachman 1990: 56]. Shu bois IELTS narxining yuqoriligi uning sifat ko'rsatkichlari bilan asoslanadi.

Bundan tashqari, IELTSning boshqa ayrim til testlaridan farqli jihati shundaki, uning yuqori narxi testning ishonchliligi, standartlashtirilganligi va global miqyosda keng tan olinganligi bilan izohlanadi. Testni ishlab chiqish, muntazam yangilab borish, baholash mezonlarini takomillashtirish hamda imtihon jarayonini adolatli va shaffof tashkil etish katta resurs va xarajatlarni talab qiladi. Shu sababli uning narxi nisbatan yuqori bo'lishi tabiiy hol sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, aynan narx omili ayrim talabgorlar uchun to'siq bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa IELTS tizimining kamchiliklaridan biri sifatida e'tirof etiladi, chunki barcha ijtimoiy qatlam vakillari uchun teng imkoniyatni to'liq ta'minlab bera olmaydi. Biroq, yuqoridagi kamchilikka qaramay, testning xalqaro nufuzi va amaliy qiymati uning keng tarqalganligini ta'minlab kelmoqda.

Ikkinchidan, mazkur test tizimida til bilish kompetensiyalarini tekshiruvchi savol turlari boshqa test turlariga nisbatan soddaroq va aniqroq tuzilgan. IELTS imtihonida qo'llaniladigan topshiriq turlari (masalan, multiple choice, matching, gap-filling, note completion va boshqalar) o'zining struktura jihatdan tushunarli va standartlashganligi bilan ajralib turadi. Bu esa talabgorlarga



savol formatini tezroq anglash va diqqatni asosan til ko'nikmalarini namoyish etishga qaratish imkonini beradi.

Boshqa ayrim xalqaro test tizimlarida, xususan, akademik murakkablik darajasi yuqori bo'lgan testlarda savolning shakli va talabi ko'pincha murakkabroq bo'lib, test topshiruvchidan nafaqat til bilimini, balki murakkab mantiqiy tahlil yoki test strategiyalarini ham talab qiladi. IELTS esa ko'proq real hayotiy kommunikativ vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali til kompetensiyalarini baholashga urg'u beradi. Natijada, savol shaklining soddaligi test natijasining til bilimiga nisbatan aniqroq mos kelishini ta'minlaydi. Test topshiriqlarining aniq va tushunarli bo'lishi baholashning adolatli bo'lishini ta'minlaydi [Brown 2004: 67]

Shu bilan birga, "soddaroq" tushunchasi testning oson ekanligini anglatmaydi. Aksincha, IELTS topshiriqlari mazmunan chuqur bo'lib, talabgordan yuqori darajadagi tinglab tushunish, o'qib anglash, yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini talab qiladi. Ya'ni, murakkablik savol shaklida emas, balki tilni qo'llash darajasida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, IELTS savol turlarining soddaroq va standartlashganligi testning adolatli, tushunarli va amaliy kompetensiyalarni baholashga yo'naltirilgan tizim ekanligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, mazkur test tizimida olib borilayotgan marketing strategiyalari uning global miqyosda keng tarqalishida muhim omil hisoblanadi. IELTS imtihoni tashkilotchilari tomonidan amalga oshirilayotgan marketing siyosati testning ommaviylashuvi va unga bo'lgan talabning ortishida muhim rol o'ynaydi. Xususan, testning xalqaro miqyosda faol targ'ib qilinishi, rasmiy platformalar orqali doimiy ravishda yangilanib boriladigan ma'lumotlar, bepul tayyorgarlik resurslari va namunaviy test materiallarining taqdim etilishi talabgorlar uchun katta qulaylik yaratadi.

Bundan tashqari, IELTS markazlari tomonidan tashkil etiladigan seminarlar, master-klasslar va tayyorgarlik kurslari orqali test tizimi keng auditoriyaga yetkazilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb-saytlar va ta'lim muassasalari bilan hamkorlik orqali olib borilayotgan targ'ibot ishlari esa testning ishonchliligi va nufuzini yanada mustahkamlaydi. Ayniqsa, muvaffaqiyatli natijalarga erishgan nomzodlar tajribasining ommalashtirilishi (success stories) marketingning samarali vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, IELTSning yana bir muhim marketing yondashuvi — uning natijalari keng ko'lamli tashkilotlar, jumladan, xorijiy universitetlar, ish beruvchilar va immigratsiya tizimlari tomonidan tan olinishi bilan bog'liq. IELTS aynan xalqaro universitetlar va tashkilotlar tomonidan tan olinishi orqali kuchli "ta'lim brendi"ga



aylangan [Kotler 2017: 112] Natijada, talabgorlar orasida ushbu testga nisbatan ishonch va qiziqish yuqori darajada saqlanib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, IELTS test tizimining muvaffaqiyatida uning puxta o'ylangan va keng qamrovli marketing strategiyalari muhim o'rin tutadi, bu esa uni boshqa til test tizimlaridan ajratib turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

To'rtinchidan, mazkur test tizimiga mustaqil tayyorgarlik ko'rish uchun boshqa test turlariga nisbatan ko'proq va xilma-xil manbalarning mavjudligi kuzatiladi. IELTS imtihoni bo'yicha tayyorgarlik resurslari nafaqat rasmiy tashkilotlar tomonidan, balki mustaqil ta'lim platformalari, nashriyotlar va tajribali mutaxassislar tomonidan ham keng miqyosda ishlab chiqilgan. Xususan, rasmiy qo'llanmalar, namunaviy testlar, onlayn kurslar, mobil ilovalar va video darslar orqali talabgorlar o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil ravishda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'quvchi mustaqil va qo'llab-quvvatlangan o'rganish jarayonlari orqali samarali rivojlanadi [Vyotsky 1978: 86]

Bundan tashqari, IELTS materiallarining tizimli va standartlashgan shaklda taqdim etilishi o'quvchilarga o'z tayyorgarlik jarayonini rejalashtirish va bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, har bir ko'nikma (Listening, Reading, Writing, Speaking) bo'yicha alohida resurslarning mavjudligi talabgorlarga zaif tomonlarini aniqlash va ularni mustahkamlashga yo'naltirilgan individual yondashuvni qo'llash imkonini yaratadi.

Shuningdek, boshqa ayrim til testlariga nisbatan IELTS bo'yicha bepul resurslar ulushi ham sezilarli darajada yuqori. Internet tarmoqlarida ochiq foydalanish uchun taqdim etilgan materiallar, jumladan, namunaviy testlar, strategiyalar, lug'at ro'yxatlari va real imtihon tajribalariga asoslangan tavsiyalar talabgorlarning mustaqil tayyorgarligini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, qo'shimcha moliyaviy xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Natijada, IELTS test tizimi nafaqat baholash vositasi, balki keng qamrovli o'quv ekotizimiga ega bo'lgan tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa uni boshqa test turlariga nisbatan yanada ommabop va qulay tayyorgarlik modeli bilan ajralib turishini ko'rsatadi.

Beshinchidan, mazkur test tizimining moslashuvchanligi va o'zgaruvchanligi uning zamonaviy ta'lim talablariga javob berishini ta'minlaydi. IELTS tizimi vaqt o'tishi bilan global ta'lim va til o'rganish jarayonlaridagi o'zgarishlarga mos ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, test formati, topshiriq turlari va baholash mezonlari muntazam ravishda qayta ko'rib



chiqilib, ularning xalqaro standartlarga mosligi ta'minlanadi. Test tizimi ijtimoiy va pedagogik o'zgarishlarga moslashishi zarurligini ta'kidlaydi [Messick 1989: 13]

Mazkur moslashuvchanlikning yana bir muhim ko'rinishi — test topshirish shakllarining xilma-xilligidir. Bugungi kunda IELTS imtihonini qog'oz shaklida (paper-based) hamda kompyuter orqali (computer-delivered) topshirish imkoniyati mavjud. Bu esa turli ehtiyoj va sharoitga ega bo'lgan talabgorlar uchun qulaylik yaratadi. Shuningdek, test natijalarini tezroq olish imkoniyati ham tizimning zamonaviylashayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, IELTS tizimi kontent jihatidan ham o'zgaruvchan hisoblanadi. Test materiallari muntazam yangilanib boriladi, bu esa savollarning oldindan yodlab olinishi yoki takrorlanishining oldini oladi va baholashning haqqoniyligini oshiradi. Shu bilan birga, test topshiriqlari real hayotiy vaziyatlarga moslashtirilgani sababli, u tilni amaliy qo'llash kompetensiyasini baholashga xizmat qiladi.

Yana bir jihat shundaki, IELTS turli maqsadlar uchun moslashtirilgan modullarga ega (Academic va General Training), bu esa uni keng auditoriya — talabalar, ish izlovchilar va migratsiya qiluvchilar uchun universal vositaga aylantiradi.

XULOSA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, IELTS test tizimining keng ommalashuvi bir qator o'zaro bog'liq omillar bilan izohlanadi. Xususan, uning xalqaro miqyosda tan olinishi, savol turlarining aniq va standartlashganligi, samarali marketing strategiyalari, mustaqil tayyorgarlik uchun keng resurslar bazasi hamda tizimning moslashuvchanligi ushbu testning ustunligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, imtihon narxining yuqoriligi ayrim holatlarda cheklovchi omil bo'lishi mumkin. Umuman olganda, IELTS zamonaviy til baholash tizimlari orasida yetakchi o'rin egallab, global ta'lim va mehnat bozori talablariga mos keluvchi samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bachman, L. F. (1990). *Fundamental Considerations in Language Testing*. Oxford University Press.
2. Bourdieu, P. (1986). *The forms of capital*. In J. Richardson (Ed.), *Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education*. Greenwood.
3. Brown, H. D. (2004). *Language Assessment: Principles and Classroom Practices*. Pearson Education.
4. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.



5. Kotler, P., & Armstrong, G. (2017). *Principles of Marketing*. Pearson.
6. Messick, S. (1989). Validity. In R. Linn (Ed.), *Educational Measurement*. Macmillan.
7. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society*. Harvard University Press.

